



May, 2023

<http://dx.doi.org/>

## TALABALARNING IJTIMOIIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

**Raxmanova Muqaddas**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** Maqolada ijtimoiylashuv - insonning uning barsha yosh bosqishlaridagi tabiiy, maqsadli yo'naltirilgan hayot sharoitlari bilan o'zaro muvofiqlikda sodir bo'ladigan, madaniyatni egallashi va qayta tatbiq etishi jarayonidagi rivojlanishi va o'z-o'zini o'zgartirib borishda individual yondashuvlarni tanlash vazifalari talqin etiladi, xulosa va tavsiyalar olg'a suriladi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy kompetentlik, ijtimoiy moslashuv, ijodiy faoliyat, ijtimoiy kasbiy qadriyat, ijtimoiy muhit, ijtimoiy bilim, o'zaro muloqot almashinuvi, ijtimoiy-kommunikatsiya jarayoni.

**Аннотация:** В статье осмысляются задачи социализации - развитие человека в процессе приобретения и повторного внедрения культуры и выбора индивидуальных подходов к самопреобразованию, которое происходит в гармонии с естественными, целенаправленными условиями жизни человека. человека в любом возрасте, представлены выводы и рекомендации.

**Ключевые слова:** социальная компетентность, социальная адаптация, творческая деятельность, социальная профессиональная ценность, социальная среда, социальное познание, через взаимодействие, социально-коммуникативный процесс.

**Abstract:** The article comprehends the tasks of socialization - human development in the process of acquiring and reintroducing culture and choosing individual approaches to self-transformation, which occurs in harmony with the natural, purposeful conditions of human life. of a person at any age., conclusions and recommendations are presented.

**Keywords:** social competence, social adaptation, creative activity, social professional value, social environment, social cognition, through interaction, social and communicative process.

Ta'lim jarayonida talabalarining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish uzluksiz davom etadigan ijtimoiy pedagogik jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham ushbu jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish va aniqlash alohida ahamiyatga ega. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqot doirasida ushbu masalaning tarixi, rivojlanish tendensiyalarini o'rganish va har tomonlama tahlil qilish talab etiladi.

Tahlillar jarayonida shu narsa aniqlandiki, kishilik jamiyati taraqqiyotida shaxsning faolligini oshirish asosida ijtimoiy munosabatlar ishtirokchisiga aylantirish muammosi uzoq yillar davomida ajdodlarimizning e'tiborini o'ziga jalb qilib kelgan.

Shaxs ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvlarning retrospektiv tahlili berilgan.


Demak, ijtimoiylashuv - insonning uning barsha yosh bosqishlaridagi tabiiy, maqsadli yo'naltirilgan hayot sharoitlari bilan o'zaro muvofiqlikda sodir bo'ladigan, madaniyatni egallashi va qayta tatbiq etishi jarayonidagi rivojlanishi va o'z-o'zini o'zgartirib borishidir. Mazkur jarayonda pedagogning eng asosiy vazifasi - insonning mustaqil fikrli, jamiyatdagi o'z o'rnini va shaxsiy orzu-intilishlari yo'nalishini anglaydigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni saqlash va mustahkamlashga qodir shaxs bo'lib etishishiga erishishdan iboratdir. Ushbu holatda, pedagogik faoliyat esa, muhim bunyodkor ijtimoiy vazifani bajaradi: bu jarayonda nafaqat yaxlitlikda shaxs shakllanadi, balki mamlakatning kelajagi aniqlanadi va ishlab chiqarish salohiyati ta'minlanadi. Pedagogik faoliyatning kelajakni oldindan ko'ra olish bilan bog'liqlikdagi tavsifi uning maqsadlarining ko'p qirraliligini, faqat bugungi kun uchun shaxs va jamiyat ehtiyojlarini qondirishnigina emas, balki kelajak uchun yo'naltirilganligini, yosh mutaxassislarni ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatga moslashuvinigina emas, ularning faoliyat sohasini innovatsiyalanib borishini ham aniqlab beradi.

Ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishda ijtimoiy moslashuv muhim omildir. Ijtimoiy moslashuv o'z navbatida ijtimoiy muhit talablariga talabalarining munosabat bildirishidir.

Talabalar OTM sharoiti, akademik o'zlashtirish muhiti, turli transformatsiya vaziyatlarida "Men" konsepsiyasi ostida harakatlanishi isbot talab qilmas haqiqatdir. Shuning uchun "Men" konsepsiyasining mohiyatini alohida tahlil qilishga urindik. Manbalarda "Men" konsepsiyasining tuzilishi quyidagisha ajratiladi: 1) **anglash**-o'zini bilish, anglash; 2) **his etish**-o'zini baholash, harakatlarini taftish qilish; 3) **xulq-atvor shakllanishi**-o'ziga shaxsiy, tahliliy munosabatdan tashkil topgan.

Ijtimoiylashuv va ijtimoiy moslashuv o'zaro shambarshas bog'liq jarayonlar bo'lib, shaxs va jamiyatning o'zaro munosabati yaxlitligini aks ettiradi. Ijtimoiylashuv, odatda, umumiy (ruhiy, aqliy, jismoniy, ijtimoiy) rivojlanish bilan, moslashuv esa, yangi sharoit, muhit, vaziyatda muloqot qilish va faoliyatni tashkil etish bilan belgilanadi. Talabalar «Men» ini barqaror tahlil qilishning pedagogik-

psixologik tuzilishiga e'tibor qaratish kerakligi amaliyotda namoyon bo'ldi. Buning ushun "Men" konsepsiyasining tuzilishiga murojaat qildik.



**1.3.2-rasm. “Men” konsepsiyasining psixologik tuzilishi**

Individuallashuv insonning ob'ektiv ehtiyojlari bilan bog'liq holda jamiyatda ma'lum darajada alohidalikka intilishi bo'lib, uning yoshligidayoq o'z-o'zini namoyon qilishga bo'lgan harakatlarida paydo bo'ladi. Bu ehtiyoj quyidagicha namoyon bo'ladi:

- a) o'z qarashlariga ega bo'lish;
- b) o'ziga xosliklarga ega bo'lish;
- v) o'ziga tegishli bo'lgan masalalarni o'zi hal qilish;
- g) o'z mavqeini aniqlab olishiga halaqit beradigan hayotiy holatlarga qarshi turish.

Agar shaxsning jamiyatga kirishishida qulay moslashuv va samarali individuallashuv jarayonlari o'rtasida tenglik-muvofiqlashuv yuzaga kelsa, shaxsning jamiyatga yaqinlashuvi ro'y beradi. Bundan tashqari bunday vaziyatlarda shaxs-muhit-faoliyatning o'zaro ta'sir impulsi sodir bo'ladi.

Shunday qilib, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv hamda transformativ sharoitga moslashuv va faoliyatli individuallashuv o'rtasida muvozanat barqaror shakllangandagina amalga oshishi mumkin. Bu ijtimoiy yo'nalgan jarayon uch asosiy pedagogik-psixologik sohada amalga oshadi:

1. Talabalar jalb etilgan faoliyat turlarining kengayishi, uning shakl va vositalarini qo'lga kiritish, erkin mo'ljal olish.
2. Muloqot doirasini kengaytirish, uning mazmunini chuqurlashtirish, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish.


3. Shaxsiy "Men" obrazini faoliyatning faol ishtirokchisi sifatida shakllantirish, o'z ijtimoiy mansubligi va o'rnini anglash, o'ziga baho berishni shakllantirish.

S.L.Rubinshteyn shaxs tuzilishini quyidagisha tasniflaydi:

- qobiliyat; -temperament; -xarakater; -iroda; -hissiyotlar; -motivatsiya;
- ijtimoiy qadriyat(ustanovka)lar.

1-jadval

#### SHAXSNING TUZILISHI



Har doim ham ijtimoiy passiv talabalarning ma'lum bir jamoaga qo'shilib ketishi oson bo'lmaydi. Aksincha, u yoki bu ta'sirlar doirasida talabalar hayotida yuz beradigan to'siqlar dezadaptatsiya jarayonini yuzaga keltiradi. Hozirgi kunda amaliyotda bu kabi ijtimoiylashuv muammolarini bartaraf etishning yaxlit uslublari mavjud emas. Chunki bu muammo talaba hayotining turli jihatlarini o'z ichiga oladi. Bu vaziyatda tibbiy, pedagogik, psixologik va ijtimoiy omillarni inobatga olish zarur. Amaliy psixologiyada dezadaptatsiyaning oldini olish va uni bartaraf etishda quyidagi tartibda ish olib borish yo'lga qo'yilgan bo'lmog'i:

- yashayotgan ijtimoiy muhit o'rganiladi, ma'lumotlar yig'iladi;
- mavjud ichki qarshilik mazmuni va xarakteri o'rganiladi;
- moslashuvga qarshi omillar aniqlanadi, jamlanadi;
- yosh davrlarga ko'ra psixofizik rivojlanish ko'rsatkichlari maxsus testlar orqali o'rganiladi;
- natijalardan kelib chiqqan holda pedagogik-psixologik korreksiya ishlari rejalashtiriladi hamda hamkorlar belgilanadi.

Mazkur ish reja va hamkorlik maqsadli tuzilib, tegishli mashg'ulotlar tashkil etilsa, talabada hayotiy motivatsiya kuchayadi, atrofdagilarga ijobiy munosabat hamda yangiliklarga qiziqish hissi paydo bo'ladi.

Z.Freyd taviyalari asosida moslashuv jarayonining ikki darajasini farqlash mumkin:

- 1) adaptatsiya;
- 2) dezadaptatsiya.

Yangi sharoitga va axborotlarni o'zlashtirishga moslashuv shaxs va muhitning o'zaro ta'sir maydoni yuzaga kelganda amalga oshadi. Shaxs-talaba va muhit o'rtasidagi munosabat-ta'sir yuzaga kelmasa, dezadaptatsiya amalga oshadi. Ijtimoiy ta'sirlarga har bir talaba jinsi, yoshiga muvofiq hamda hayotiy tajribasi asosida javob beradi. Bizningcha, har bir inson hayotda ushraydigan to'siqlar, qiyinchiliklarni engish uchun mos yo'llarni va hal etishning xos usullarini qo'llaganligi sababli, moslashuvchanlikni usullar va hayotiy tajribalar tizimi deya talqin etish mumkin. Bunday xulosaga kelish ushun A.A.Reanning ijtimoiy moslashuvga ichki va tashqi ko'rsatkichlar bog'liqligi bilan yondashish lozim degan tavsiyasi asos bo'ldi. Unga ko'ra: "...ichki ko'rsatkichlarni psixoemotsional mo'tadillik, qoniqish, qulaylik mavjudligi hamda stress, xavf-xatar mavjud emasligi holatlari tashkil etadi. Tashqi ko'rsatkichlarni muhit qonun-qoidalari, talablari, jamiyat me'yorlari qamrab oladi".

Talabalarning ijtimoiylashuvi psixologik ildizga ega bo'lib, pedagogik ta'sirdan oziqlanadi, rivojlanadi, qayta quriladi. Shuning ushun bu yo'nalishlardagi ilmiy tadqiqotlar mazmunida psixologik jarayonlarning xususiyatlarini o'rganish va ularning ta'siriga tayanish muhimdir.

Shaxs ijtimoiylashuvi u yoki bu jamiyat ijtimoiy qatlamlariga xos bo'lgan universal vositalar, axborot shakllari orqali amalga oshiriladi. Ularga quyidagicha turkumlash mumkin: 1) maishiy va gigienik yurish-turish qoidalari; 2) insonni o'rab turuvchi moddiy mahsulotlar, ma'naviy madaniyat unsurlari; 3) muomala usuli va mazmuni; 4) hayotiy faoliyatdagi ijtimoiy munosabatlar: ta'limiy-tarbiyaviy faoliyat, muloqot, o'yinlar, sport.

Har bir jamiyat, davlat, ijtimoiy guruh o'z maqsad va strategiyalari yo'lida ijobiy va salbiy, rasmiy va norasmiy qarorlar, muayyan chegaraviy munosabatlar, ya'ni ta'qiqlashlar, o'zaro kelishuv, ya'ni ruxsat berish, majburlash kabi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ko'zda tutuvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqadi. Bu chora-tadbirlar yordamida talabalarning hulq-atvori shu jamiyatda qabul qilingan me'yorlar, milliy va ummuinsoniy qadriyatlarga moslashtiriladi.

Shunday qilib, shaxs ijtimoiylashuvining etakshi omillari: muloqot (mikro muhitda: ota-onalar, oila a'zolari; makro muhitda tengdoshlar va boshqalar bilan) hamda faoliyat (o'qish, o'yin, sport, ijod...). Psixologik-pedagogik tadqiqotlar jarayonida turli yosh davrlariga xilma-xil faoliyat turlari mos kelishi aniqlangan bo'lib, tadqiqotda ijtimoiylashuv mexanizmlarini aniqladik.

### **Adabiyotlar:**

1. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – T.: TDPU, 2003. – 174 b.
2. Raxmanova M.Q. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy faollikni rivojlantirish. Monografiya // «Bookmany print» nashriyoti, 2022, - 106 b.
3. Rakhmanova M. Q. Features of Development of Social Competence of Students // Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN 2795-546X2021 Journal Impakt Faktor:8.2, 2023, - 130-137 b
4. Rakhmanova M.K. Formation of development of sosial astivity in students // International Journal on Integrated Edusation 2021 Journal Impakt Faktor:7.242 2021, - 241-244 b
5. Rakhmanova Mukaddas. “Scientifik and pedagogisal bases of preparation of students for development of sosial astivitu in the proses of professional and pedagogisal edusation” // Volume: 7 Issue: 11 November 2021 SJIF Impast Fastor 2021: 8.047|| ISI Value: 1.188. 2021 EPRA IJMR | www.eprajournals.com | Journal DOI URL: <https://doi.org/10.36713/epra2013 B.283-287>.
6. Raxmanova M.Q. Problems of Improving Sosial Sompetense of Students in the Proses of Higher Pedagogisal Education // Sentral asian journal of literature, philosophy and sulture 12 Des 2022 B.48-52
7. Raxmanova M.Q. O'quvshilar kasbiy ta'limining psixologik jihatlari va motivlari // O'zMU xabarlari. 2021. –№1/3/ – B. 114-116.